

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

DAMINOV XUSNIDDIN ABSALOMOVICH

**FERMER XO‘JALIKLARI – TADBIRKORLIK
FAOLIYATINING SUBYEKTI SIFATIDA**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Daminov Xusniddin Absalomovich

Fermer xo‘jaliklari – tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida.....3

Даминов Хусниддин Абсаломович

Фермерские хозяйства – как субъекты предпринимательской
деятельности.....23

Daminov Khusniddin Absalomovich

Farms as entities of business activities.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

DAMINOV XUSNIDDIN ABSALOMOVICH

**FERMER XO‘JALIKLARI – TADBIRKORLIK
FAOLIYATINING SUBYEKTI SIFATIDA**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Yu471 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) «ZiyoNet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|--|
| Ilmiy rahbar: | Nasriyev Ilhom Ismoilovich yuridik fanlar doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Borotov Mirodiljon Xomudjonovich yuridik fanlar doktori, professor Qalandarova Malikaxon Pirnazarovna yuridik fanlar nomzodi, dotsent |
| Yetakchi tashkilot: | O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi |

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 20-dekabr kuni soat 10:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998) 555010189; faks:(+998) 555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (30-24 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998) 555010189; faks: (+998) 555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 5-dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 5-dekabrda 12-raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.M.Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

F.H.Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qishloq xo‘jaligi sohasi iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy tarmoqlardan biri bo‘lib, unda fermer xo‘jaliklari – tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlashda, ularni qayta ishlash va ish o‘rinlarini yaratish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarni amalga oshirishdagi o‘rni g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, fermer xo‘jaliklari, xususan, oilaviy fermerlar, agar biz ochlikni yo‘qotishda haqiqiy muvaffiqiyatga erishmoqchi bo‘lsak, qishloq oziq-ovqat tuzilmalarini o‘zgartirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar markazida bo‘lishi kerak. Oilaviy dehqonchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligining asosiy shakli bo‘lib, qiymat jihatidan jahon oziq-ovqatining 80 foizini ishlab chiqaradi¹. Har soniyada dunyo aholisi uch kishiga ko‘paymoqda va 2050-yilga kelib, sayyoramizda deyarli 10 milliard odam yashaydi. Ularni xavfsiz oziq-ovqat bilan ta‘minlash qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir². Shu ma‘noda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda asosiy subyekt bo‘lgan fermer xo‘jaligi faoliyatini samarali huquqiy tartibga solish va fermer xo‘jaliklari huquqiy maqomini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda fermer xo‘jaliklari faoliyatini huquqiy tartibga solish muhim masala sifatida qaralib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda turli imtiyozlar taqdim etish orqali ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilm-fan va yuqori texnologiyalardan foydalanishning huquqiy muammolari, xavfsiz oziq-ovqat hosildorligini yetishtirishning normativ asoslari, fermer xo‘jaliklari – tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatidagi mulkiy daxlsizligi, ularning huquqlari ustuvorligini ta‘minlanish, fermer xo‘jaliklari va klaster o‘rtasida vujudga kelgan nizolarni oldini olish va bartaraf etish yo‘llarini tadqiq etish, zamonaviy konstruksiyalarni qo‘llash muammolari va ularning manfaatlari bo‘yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida fermer xo‘jaliklari hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlarining eng faol ishtirokchisi sifatida O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyektiga aylandi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, umumiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 29,8 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan³. “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermer xo‘jaliklarining daromadlarini oshirish ustuvor maqsad va vazifalarini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida belgilangani va bu borada

¹ <https://www.fao.org/newsroom/detail/global-forum-of-the-un-decade-of-family-farming-2019-2028-begins/ru>.

² <https://www.bayer.ru/ru/sustainability/nutrition>.

³ O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yillik hisoboti. Erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. 62-b. // <https://www.agro.uz/wp-content/uploads/2024/03/agriculture-annual-report-2023.pdf?ysclid=lwomyvrjc9280937305>.

sohaga doir maqsadli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda⁴. Biroq fermer xo‘jaliklari faoliyatiga va rivojlanishiga noqonuniy aralashish holatlari jiddiy muammolarga sabab bo‘layotgani natijasida fuqarolik-huquqiy himoya qilish tizimini ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o‘rganish, tahlil qilish obyektiv zaruriyat ekanini anglatmoqda. Shuning uchun fermer xo‘jaliklari tadbirkorlar o‘rtasida mavjud muammolarni oldini olish va bartaraf etish, tadbirkorlar huquq va qonuniy manfaatlari himoyasining samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish⁵ amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Yer kodeksi (1998) va O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi (1998), “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi (2004), “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi (2021) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 5-oktabrdagi PF–4848-son, “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 9-oktabrdagi PF–5199-son, “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son, “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 12-dekabrdagi PF–205-son Farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti, xususan, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatidagi huquqiy maqomi bilan bog‘liq masalalar alohida tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

Fuqarolik huquqi subyektlari, xususan, yuridik shaxslar bilan bog‘liq jihatlar mamlakatimiz sivilist olimlari Abdusalomov M.U., Borotov M.X., Berdiyarov R.T., Ibratov B.I., Nasriyev I.I., Oqyulov O., Quvandiqov Z.O., Rahmonqulov H.R.,

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” F–5464-son Farmoyishi // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019 yil, 08/19/5464/2891-son.

Ro‘zinazarov Sh.N., Samarxodjayev B.B., Tursunov Yu., Xolbayev S.B., Yuldashev J.I. Zokirov I.B.lar tomonidan, fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatidagi ishtirokining ayrim jihatlari Azizov X.T., Ashurova N.A., Qallibekov T.Sh., Sindarov K.O., Shukurullayev A.X.larning ilmiy tadqiqotlarida, ularni boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish asoslari hamda majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi masalalari Imomov N.F., Nuriddinova Sh.T., Qutlimuratov F.K., Topildiyev B.R., Topildiyev V.R., Turebekov T.M., Xudaybergenov B.B. hamda huquqni qo‘llash amaliyotidagi ayrim jihatlari Murodov N. tomonidan o‘rganilgan. Bundan tashqari, Tashmatov R.X. va boshqa iqtisodchi olimlar mamlakatimiz fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish masalalarida tadqiqotlar olib borishgan⁶.

Shuningdek, MDH davlatlarida Bratus S.N., Fedorov A.V., Gatin A.M., Godunov V.N., Golovanova N.A., Gusev Yu.O., Ioffe O.S., Karelina S.A., Kazakov Ye.B., Kashanina T.V., Larionova N.A., Mardaliyev R.T., Matveyev G., Mojeyko V.N., Murtazakulov Dj.S., Pavlov E.I., Sergeyev A.P., Stepanova T.G., Stepanenko Ye., Suxanov Ye.A., Tanaga A.N., Tolstoy Yu.K., Uskova T.V. va boshqa olimlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan⁷.

Xorijiy mamlakatlarda Diamantis M., Hanstad T., Maskell P., Meskon M.X., Michael X., Porter M., Tomas U., William A.⁸ larning tadqiqot ishlarida mavzuga doir masalalar tadqiq etilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning ilmiy asarlari tadqiq etilayotgan muammoni nazariy jihatdan tahlil qilishda muhim manba bo‘lib, tadqiqot ishini amalga oshirishda muayyan darajada hissa qo‘shdi.

Mavjud yuridik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni o‘rganar ekanmiz, ular orasida bevosita fermer xo‘jaliklarining fuqarolik huquqining subyekti sifatidagi xususiyatlarini, boshqacha aytganda, fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyati subyektliligining nazariy jihatlari, huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlarini, huquqiy layoqati, ularni boshqarish, tashkil etish va bekor bo‘lish asoslari hamda fuqarolik-huquqiy javobgarligining amaliy jihatlari alohida tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar mavjud emasligi kuzatildi.

Shu munosabat bilan tadqiqot ishida fermer xo‘jaliklari milliy qonunchilik tizimida kompleks yondashuv asosida, tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida yaxlit monografik tarzda tadqiq etilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatidagi huquqiy maqomini aniqlash, sohaga doir qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish, fermer xo‘jaliklari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy, amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan

⁶ Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

⁷ Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

⁸ Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

iborat.

Tadqiqot vazifalari:

fermer xo‘jaliklarining yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakli sifatidagi tadrijiy rivojlanishini tadqiq etish;

fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik subyektlari tizimida tutgan o‘rmini ochib berish;

fermer xo‘jaliklari mulkiy asoslarining huquqiy rejimini tahlil qilish;

fermer xo‘jaligi faoliyatini tashkil etishda qo‘llaniladigan fuqarolik-shartnomaviy tizimni o‘rganish;

fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etishda zamonaviy konstruksiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni huquqiy tahlil qilish;

fermer xo‘jaligini boshqarish, qayta tashkil etish tartib-taomillarini tartibga solishni ilmiy tahlil qilish;

fermer xo‘jaligini tugatish asoslarini ochib berish;

fermer xo‘jaliklari majburiyatlari bo‘yicha javobgarlik masalalarini o‘rganish.

Tadqiqot yakunlari yuzasidan qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti fermer xo‘jaliklarining vujudga kelishi, faoliyatini amalga oshirish, boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish, fuqarolik-huquqiy javobgarligi bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmeti fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi va xalqaro hujjatlar, yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, sotsiologik so‘rov, induksiya va deduksiya, huquqni qo‘llash amaliyoti, statistik ma‘lumotlarning tahlili kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fermer xo‘jaligi boshlig‘i pensiya yoshiga to‘lganda yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, oliy ta‘lim muassasalariga kunduzgi o‘qishga qabul qilingan, saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylangan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ijara shartnomasiga o‘zgartirishlar kiritish orqali o‘z oila a‘zolaridan biriga qonunchilikka muvofiq ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga berishga haqli ekani asoslab berilgan;

fermer xo‘jaligining yer uchastkalarini ijaraga olish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda – fermer xo‘jaligi tugatilishi mumkinligi isbotlangan;

yer uchastkalarini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish tartibi doirasida ochiq muhokama yakunlari bo‘yicha tuzilgan bayonnoma Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, mahalliy Kengashga taqdim etilgandan keyin bir oy ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi devoni, mahalliy Kengash kotibiyati yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning qarori loyahasini tayyorlashi asoslantirilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish va ko‘chmas mulk obyektlarini buzish to‘g‘risidagi qarorlari qonunga xilof deb topilgan taqdirda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarning o‘rni, birinchi navbatda, markazlashtirilgan jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan qoplanib, keyinchalik ushbu mablag‘lar aybdor shaxslardan regress tartibida undirilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatidagi maqomi, uning tadbirkorlik subyektlari tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati fuqarolik qonunchiligi asosida ilmiy tahlil etilgan hamda ular faoliyatini takomillashtirish asoslantirilgan;

fermerlik harakati huquqiy asoslari rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari to‘rt bosqichda (1991-2000-yillar, 2001-2010-yillar, 2011-2015-yillar va 2016-yildan – hozirgacha bo‘lgan davr) qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqib, undagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, bartaraf etish va tizimlashtirish hamda huquqiy tartibga solishdagi muhim ahamiyati ilmiy tahlil etilgan va muayyan amaliy xulosalar shakllantirilgan;

fermer xo‘jaligi faoliyatining huquqiy asoslarini kuchaytirish maqsadida Fuqarolik kodeksning “yuridik shaxslar” deb nomlangan 4-bob, 2-paragrafiga tijoratchi tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli sifatida “fermer xo‘jaligi”ni kiritish asoslantirilgan;

fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirok etishi tahlil etilgan va fermer xo‘jaligi tushunchasiga ilmiy-doktrinal ta‘rif berish barobarida, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi birinchi qismini “chet el fuqarosi va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxs ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda” degan so‘zlar bilan to‘ldirish zarurligi asoslab berilgan;

yuridik shaxslarni (fermer xo‘jaligini) boshqarish, tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish jarayonida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar bo‘yicha tavsiya, mualliflik ta‘rifi va takliflar ishlab chiqilib, asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot davomida xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rganildi, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazildi, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilinib, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, fuqarolik qonunchiligining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, xalqaro xususiy

huquq fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'laroq, qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mazkur tadqiqot yakunlariga ko'ra, qator takliflar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi:

fermer xo'jaligi boshlig'i pensiya yoshiga to'lganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilingan, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylangan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ijara shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish orqali "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonun 4-moddasining birinchi qismi talablariga javob beradigan o'z oila a'zolaridan biriga qonunchilikka muvofiq ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga berishga haqli ekani haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-son Qonuni 6-moddasini ishlab chiqishda, ya'ni "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi beshinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining 2022-yil 6-oktabrdagi 04/8-09-4609-son dalolatnomasi). Ushbu taklif mamlakatimizda yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

fermer xo'jaligining yer uchastkalarini ijaraga olish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda – fermer xo'jaligi tugatilishi mumkinligi, bundan ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi o'z rahbari tomonidan fermer xo'jaligining tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish orqali qayta tashkil etilgan hollar mustasno ekani to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-son Qonuni 6-moddasini ishlab chiqishda, ya'ni "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasi yettinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining 2022-yil 6-oktabrdagi 04/8-09-4609-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash bilan bog'liq huquq amaliyoti takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

yer uchastkalarini olib qo'yish to'g'risidagi qarorni qabul qilish tartibi doirasida ochiq muhokama yakunlari bo'yicha tuzilgan bayonnoma Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, mahalliy Kengashga taqdim

etilgandan keyin bir oy ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi devoni, mahalliy Kengash kotibiyati yer uchastkasini yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning qarori loyihasini tayyorlash xususidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida” 2022-yil 29-iyundagi O‘RQ–781-son Qonunining 21-moddasi birinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 15-iyuldagi 01/04-1828-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yer uchastkalarini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish tartibini mustahkamlashga xizmat qilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish va ko‘chmas mulk obyektlarini buzish to‘g‘risidagi qarorlari qonunga xilof deb topilgan taqdirda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarning o‘rni, birinchi navbatda, markazlashtirilgan jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan qoplanib, keyinchalik ushbu mablag‘lar aybdor shaxslardan regress tartibida undirilishi xususidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida” 2022-yil 29-iyundagi O‘RQ–781-son Qonunining 38-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 15-iyuldagi 01/04-1828-son dalolatnomasi). Ushbu taklif qabul qilingan ma‘muriy hujjat qonunga xilof deb topilgan taqdirda, yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash masalalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan Toshkent shahar yuridik texnikumi (2023-yil 17-fevraldagi 1-08/8-08/32-sonli xat)da Fuqarolik huquqi fani bo‘yicha o‘quv jarayonlarida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 10 ta ilmiy maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot

natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklari vujudga kelishining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida fermer xo‘jaliklarining yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakli sifatidagi tadrijiy rivojlanishi, ularni respublikada tadbirkorlik subyektlari tizimida tutgan o‘rni va bu boradagi sohaga doir qonun va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi, ularning tahlili va huquqiy tartibga solinishi tadqiq qilingan.

Tadqiqotda mamlakatimiz (Azizov X.T., Borotov M.X., Berdiyarov R.T., Fayziyev Sh.X., Ibratov B.I., Odinayev A.S., Oqyulov O., Qallibekov T.Sh., Rahmonqulov H.R., Ro‘zinazarov Sh.N., Sindarov K.O., Tursunov Yu., Usmanov M., Zokirov I.B.) va xorijlik (Busigin A., Gryadov S.I., Siropolis N.) olim va tadqiqotchilarning mavzuga doir qarashlari tahlil etilib, tadbirkorlik faoliyatining subyekti hisoblangan fermer xo‘jaliklari vujudga kelishining o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari tahlil etilgan.

Tahlil va tadqiqotlar natijasida mazkur bobda xorijiy mamlakatlarning (AQSH, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Qozog‘iston, Belarus) fermer xo‘jaliklari tashkil topishi genezisi, qonunchilik sohasida amalga oshirilgan islohotlari bilan bog‘liq tajribalar tahlil qilinib, undagi ayrim ilg‘or novellalar qonunchiligimizda fermer xo‘jaliklari tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatidagi maqomini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslantirilgan.

Fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatidagi qonunchilik holati O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlar, sohaga doir qonunosti hujjatlari hamda Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Belarus Respublikalarining sohaviy qonunlari asosida tahlil qilingan.

Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish o‘ziga xos murakkab huquqiy institut ekanligi, tadbirkorlik faoliyatiga davlat organlari tomonidan aralashish, xususan, fermer xo‘jaliklarining har tomonlama yuksalayotganligiga qaramay, uning rivojiga to‘siq bo‘layotgan muammolar: ularni tashkil etish, moddiy-texnik ta‘minlash, yer berish, faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hokimiyatlar, banklar, soliq idoralari va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan sodir etilganligi, tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining qonunga xilof harakatlaridan huquqiy himoya qilish manbalar va huquqni qo‘llash amaliyoti asosida ochib berilgan.

Tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligi sohasidagi mavjud qonunchilik bazasini qayta ko‘rib chiqish va uni takomillashtirish, ya‘ni respublikamizda fermer xo‘jaliklari faoliyatining huquqiy asoslari “paketi”ni yaratish, amaliyotga joriy etish natijasida fermerlik harakati paydo bo‘lgani va fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy kuchga, subyektg a aylanganligi ahamiyati o‘rganildi.

Muallif mamlakatimiz Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining sohaga doir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilishi, fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va qulayliklar yaratish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida iqtisodiy va moliyaviy erkinligini ta'minlash, mavjud muammolar yechimini topish, hal qilish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni doimiy takomillashtirib borish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan, deb hisoblaydi.

Tadqiqot ishida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, qishloq xo'jaligi sohasida "fermer", "fermer xo'jaligi" so'zlari ishlatila boshlanganligi, fermer xo'jaligi xususiy yoki uzoq muddatga ijaraga olingan yerdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadigan xo'jalik ekanligi, ilk va mukammal shakldagi fermer xo'jaliklari AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya mustamlakachilik siyosati va bo'sh yotgan hamda yerli aholiga tegishli yerlarda koloniyalar tashkil qilish natijasida paydo bo'lganligi tarixi o'rganiladi. Fermerlik sohasi rivojlangan davlatlarda fermerlikning tashkil topishi, shakllanishi har bir davlatda ularning ichki ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga qarab, turlicha yondashuvlar natijasida paydo bo'lganligi asoslantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklari faoliyatining huquqiy asoslarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, ularni dissertant tomonidan shartli ravishda to'rt bosqichga (1991-2000-yillar, 2001-2010-yillar, 2011-2015-yillar hamda 2016-yildan keyingi davr) bo'lib o'rganish taklif etilgan hamda ushbu davrlarda qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining mazmunini, ya'ni fermerlik sohasini tartibga soladigan huquqiy hujjatlarni yana bir bor qayta ko'rib chiqish, huquqdagi bo'shliqlarni to'ldirish va kamchiliklarni bartaraf etish, o'tgan mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalarni sarhisob qilish, shuningdek sohadagi samaradorlikni o'rganish va yillar davomida olib borilgan islohotlar davrida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni yana bir bor tahlil qilishning ahamiyati yoritib berilgan.

Tadqiqot ishida fermer xo'jaliklarining yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakli sifatidagi tadrijiy rivojlanishi orqali quyidagi xulosalarga kelindi: *birinchidan*, shaklan fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi sohasidagi xususiy korxonaning o'ziga xos shaklidir; *ikkinchidan*, fermer xo'jaligi tadbirkorlikning shunday tipiki, uning faoliyati yer bilan uzviy bog'liqdir; *uchinchidan*, fermer xo'jaligi mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda faoliyat yurituvchi asosiy subyektdir; *to'rtinchidan*, davlat mustaqilligining dastlabki yillarida xo'jalik yuritishning ushbu shakli oddiy (primitiv) tashkiliy-huquqiy shakl – dehqon xo'jaligi shaklidan – ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga, bugungi kunda esa – klaster shakliga qadarli yo'lni bosib o'tgan o'ziga xos yuridik shaxs tipiga aylandi; *beshinchidan*, fermer xo'jaligi faoliyati huquqiy maqomining ajralmas qismi bo'lib, uni yuridik shaxs sifatida tashkil etilishi va bekor bo'lishi hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, fermer xo'jaligi bugungi kunda yakka boshchilikka asoslangan o'rta tadbirkorlik subyektiga aylandi.

Dissertatsiyada muallif “tadbirkor” va “tadbirkorlik faoliyati” to‘g‘risida mahalliy va xorijiy davlatlar huquqshunoslari va iqtisodchi olimlarining mulohazalarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldi: qonunchilikda cheklov o‘rnatilgan ayrim lavozimli shaxslardan tashqari, har qanday shaxs tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullana olishi mumkin. Tadbirkor o‘z tashabbusi va tavakkalchiligi asosida faoliyat yuritishi, o‘z xohish-istagini inobatga olgan holda, qonun doirasida mol-mulki bilan mustaqil ishlab chiqarishni tizimli yo‘lga qo‘yishi barobarida cheklanmagan tarzda daromad (foyda)ga ega bo‘lishi, shu bilan birgalikda, o‘z mulkiy javobgarligi ostida faoliyat olib boradigan shaxsligi asoslantirib berilgan.

Ishda amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi va “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasini yangi tahrirda qabul qilish taklif etilgan bo‘lsa, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun 4-moddasining birinchi qismida: “o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi” degan so‘zlardan keyin *“chet el fuqarosi va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxs ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda”* degan so‘zlar bilan to‘ldirish taklif etiladi. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining “Yuridik shaxslar”, deb nomlangan 4-bob, 2-paragrafiga tijoratchi tashkilotning alohida tashkiliy-huquqiy shakli sifatida “Fermer xo‘jaligi”ni kiritish kabi normalar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqligi asoslantiriladi.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomillari va huquqiy oqibatlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida fermer xo‘jaliklari mulkiy asoslarining huquqiy rejimi: ya‘ni ularning o‘z mol-mulki va jalb etilgan mol-mulklari to‘g‘risidagi tushunchalar va ularning faoliyatini tashkil etishda qo‘llaniladigan fuqarolik-shartnomaviy tizim o‘rni va ahamiyati, fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etishda zamonaviy konstruksiyalarni amaliyotda qo‘llash muammolarining o‘ziga xos xususiyatlari, jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot yo‘nalishida mamlakatimiz (Abdulxasanova Q.Sh., Abdusalomov M.E., Aliyev G.N., Ashurova N.A., Ergashev V.Yo., Imomov N.F., Jumag‘ulov A.E., Otaxonov F.H., Quvandiqov Z.O., Samarxodjayev B.B., Xolbayev S.B., Yuldashev J.N.) va xorijlik (Bredixin A.L., Gatin A.M., Godunov V.N., Hanstad T., Kashanina T.V., Kleyner G.B., Mardaliyev R.T., Maskell P., Merriam-Webster, Pavlov E.I., Savenko N.Ye., Sergeyev A.P., Tolstoy Yu.K., Uchuvatova V.V.) olim va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ularning fikr-mulohazalari asosida fermer xo‘jaliklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomillari va huquqiy oqibatlar borasida ilmiy-nazariy gipotezalar, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha xulosalar va mualliflik takliflari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada muallif mahalliy va xorijiy davlatlar huquqshunoslari tomonidan “huquqiy rejim”ga bergan ta‘rif va tushuntirishlarini tahlil qilib,

quyidagi fikrga keladi: fermer xo‘jaligining huquqiy rejimi xo‘jalik tasarrufidagi barcha mol-mulklarga nisbatan mulk huquqining qonun doirasida vujudga kelishini tartibga soladigan normalar yig‘indisidir.

Dissertant tomonidan fermer xo‘jaliklarini mol-mulki bilan bir qatorda, ularning yerdan foydalanish huquqini fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog‘liq masalalarni tadqiq eta borib, u “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunda yerdan foydalanish huquqini garovga qo‘yish mumkinligi to‘g‘risida norma mavjudligi, ammo shu kunga qadar bu huquqni garovga qo‘yish yoki uni fuqarolik muomalasiga kiritish amaliyoti mavjud emasligi sabablarini o‘rganadi va bunga ta’sir qiluvchi bir necha omillarni tahlil etadi va, *birinchidan*, huquqni amalga oshirish mexanizmi yo‘qligi; *ikkinchidan*, yerni baholash mexanizmi takomillashmaganligi; *uchinchidan*, huquqlar bozori mavjud emasligi tahlil etiladi. Va yakunda Hukumat qarori bilan “yerdan foydalanish huquqi” bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish va qabul qilish zarurati asoslantirib berilgan.

Muallif kontraktatsiya shartnomasidan voz kechish bu tor ma‘nodagi yechim va qarash ekanligi, chunki mamlakat qishloq xo‘jaligi sohasida fermer xo‘jaligi faoliyatida mazkur shartnomaning o‘rni borligini uqtiradi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi loyihasidan “kontraktatsiya shartnomasi”ni zo‘rma-zo‘rakilik bilan huquqiy tartibga solish tizimidan chiqarib tashlanishi ham, o‘z navbatida, kelajakda qishloq xo‘jaligi sohasini ortda qolishiga sabab bo‘lib, sohada boshqa muammolarni keltirib chiqarishi, qolaversa mahsulot turidan kelib chiqib, ayrim turdagi mahsulotlarga bo‘lgan jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, kontraktatsiya shartnomasi mazmunini FKda takomillashtirish, shuningdek fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tanlov erkinligini cheklashni oldini olish asoslantirilgan.

Dissertatsiya ishida “klaster”ga xos xususiyatlar, *birinchidan*, “klaster” bir sohada bir nechta xo‘jalik subyektlarining birlashishi orqali hududni iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qilishi; *ikkinchidan*, yuridik shaxs (tijorat va notijorat)larni bir tizimda birlashtirish asosida, ularni birgalikda iqtisodiy rivojlantirish hamda o‘zaro raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qilishi; *uchinchidan*, “klaster”lashtirish orqali aniq maqsad sari bosqichma-bosqich tadbirkorlik, sa’y-harakatlar va kapitallar birlashishi aniqlashtirildi, shuningdek fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etishda zamonaviy konstruksiyalarni qo‘llash muammolarini yoritish orqali, *birinchidan*, respublikamizda faoliyat yuritayotgan klasterlarning huquqiy maqomini belgilovchi “Klasterlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish; *ikkinchidan*, “Klasterlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda klasterlarni mustaqil yuridik shaxs sifatida e’tirof etish hamda uning boshqa tadbirkorlik subyektlari bilan tengligining huquqiy maqomini mustahkamlash; *uchinchidan*, klasterlarni tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy alohida yangi shakli sifatida e’tirof etish kabi xulosalarga kelindi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining “Klasterlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish taklif qilinib, klaster tushunchasiga mualliflik huquqiy ta’rifi berildi.

Bundan tashqari, ushbu bobda muallif tomonidan “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasi ikkinchi qismida “pul, qimmatli qog‘ozlar,

binolar, inshootlar, boshqa mol-mulk yoki pul bilan baholanadigan mulkiy huquqlar degan soʻzlardan keyin *“hamda mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan jalb etilgan mablagʻlar”* jumlasini bilan toʻldirish taklif etildi. Zero, ushbu mablagʻlar kelajakda fermer xoʻjaligining ustav fondiga qoʻshiladigan hissa boʻlishi barobarida, mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan investitsiyalarni jalb qilishga imkon beradi, deb hisoblaydi. Shuningdek, ushbu Qonunning 25-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish zarurligini taʼkidlaydi: “fermer xoʻjaliklari ixtiyoriylik asosida birlashishi, mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika taʼminoti, qurilish, texnikaviy, suv xoʻjaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yoʻsinidagi va boshqa xil xizmatlar koʻrsatish boʻyicha uyushmalar, *klasterlarga* hamda boshqa birlashmalarga kirishi mumkin”.

Dissertatsiya ishining ushbu bobi Rossiya Federatsiyasi, Qozogʻiston va Belarus respublikalarining “Dehqon (fermer) xoʻjaligi toʻgʻrisida”gi Qonunlari hamda Rossiya Federatsiyasi va Armaniston Respublikalarining klasterlar toʻgʻrisidagi qonunlari asosida tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Fermer xoʻjaliklarini boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida fermer xoʻjaligini boshqarish, qayta tashkil etish tartib-taomillari hamda fermer xoʻjaligini tugatish asoslari va fermer xoʻjaliklari majburiyatlari boʻyicha javobgarlik masalalari tahlil qilingan hamda tegishli taklif, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muallif ilmiy-metodologik jihatdan fermer xoʻjaliklarini boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish asoslari hamda fuqarolik-huquqiy javobgarligining ayrim jihatlarini mamlakatimiz (Borotov M.X., Imomov N.F., Nuriddinova Sh.T., Oqyulov O., Qutlimuratov F.K., Rahmonqulov H.R., Topildiyev B.R., Topildiyev V.R., Turebekov T.M., Xolbayev S.B., Xudaybergenov B.B., Zokirov I.B., Shukurullayev A.X.) va xorijlik (Bratus S.N., Bryu S.L., Fedorov A.V., Golovanova N.A., Ioffe O.S., Karelina S.A., Makkonel K.R., Matveyev G., Maykl X., Meskon M.X., Mirzayeva R.M., Mojeiko V.N., Murtazakulov Dj.S., Sergeev A.P., Sorokin V., Stepanova T.G., Stepanenko Ye., Suxanov Ye.A., Tolstoy Yu.K.) olimlar, amaliyotchi va tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida oʻrganib, oʻzining konseptual nuqtayi nazarini, ilmiy qarashlarini ifoda etgan.

Dissertatsiya ishida tadbirkorlik subyekti fermer xoʻjaliklarini boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish asoslariga mualliflik taʼrifi berilishi barobarida, fuqarolik-huquqiy javobgarlik kabi masalalar ham tahlil qilingan.

Ushbu bobda Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozogʻiston, Tojikiston, Ukraina, Moldova, Gruziya, AQSH, Germaniya, Fransiya kabi xorijiy davlatlar tajribasi tadqiq qilingan.

Tadqiqot ishida muallif sohaga doir qonunlar va qonunosti hujjatlarini unifikatsiya (birxillashtirish) qilish lozimligini taʼkidlab, “Fermer xoʻjaligining Namunaviy Ustavi” V boʻlim 17-bandini quyidagi soʻzlar bilan toʻldirishni taklif qiladi: “fermer xoʻjaligining muassisi – fermer uning boshligʻi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan, tegishli malakaga yoki qishloq xo‘jaligida ish tajribasiga ega bo‘lgan” degan so‘zlardan keyin “*chet el fuqarosi va O‘zbekiston hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxs ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda fermer bo‘lishi mumkin*”ligi asoslab berilgan. Shuningdek, fermer xo‘jaligi misolida “qayta tashkil etish” tushunchasiga mualliflik ta‘rifi berilib, tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslarga nisbatan qayta tashkil etish – bu fuqarolik normalari, soha qonunchiligi uchun ham ahamiyatli bo‘lib, xo‘jalik subyektlarining ustavi asosida subyekt faoliyatini qayta tashkil etish natijasida, yangi tashkil etilgan yuridik shaxs (huquq subyekt) uning huquqiy vorisi sifatida qonunchilikda belgilangan barcha huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishi hamda tegishli qonun normalariga bu haqda o‘zgartirish kiritish takliflari asoslantirilgan.

Dissertatsiyada fermer xo‘jaligini boshqarish va qayta tashkil etishda tizimli ravishda “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasini bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich takomillashtirish natijasida, uning boshlig‘i sifatida faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi emas, balki “*chet el fuqarosi yoki O‘zbekiston hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham bo‘lishi mumkin*”ligi asoslab berilgan.

Bundan tashqari, bob bo‘yicha xulosa, fikr va mulohazalarni umumlashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda mahalliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini atroflicha o‘rganib hamda fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish va bekor qilish yuzasidan o‘tkazilgan nazariy, ilmiy va amaliy tahlillar, sotsiologik so‘rovlar asosida Hukumat qarori bilan “*Yuridik shaxslarni qayta tashkil etish va tugatish tartib-taomillari to‘g‘risida*” nizom ishlab chiqish va qabul qilish taklifi asoslantirilgan.

